QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2022 - yil 2 - avgust 283-4-58-Q/22 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanining 2023-2025 yillar uchun mahalliy budjetining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini tuzish, ko‘rib chiqish va Qashqadaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish to‘g‘risida

Makroiqtisodiy va budjet barqarorligini, xususan davlat qarzining belgilangan yuqori chegarasidan oshib ketmasligini ta’minlash maqsadida budjet taqchilligining 2023-2025 yillardagi maqsadli parametrlari belgilanganligi, shuningdek 2023-yilda davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2,0 foizdan oshirilmaslik maqsad qilinganligi, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 90, 91, 92-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 20-iyundagi (03/03-03-01-32/2314-son) murojat xati hamda Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashining 2022-yil 28-iyuldagi VI-49-126-4-0-K/22-son qarorini inobatga olib, 2023-2025 yillar uchun tuman mahalliy budjetining makroiqtisodiy ko‘rsatgichlar prognozini tuzish, ko‘rib chiqish va Qashqadaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 20-iyundagi (03/03-03-01-32/2314-son) murojat xati hamda Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashining 2022-yil 28-iyuldagi VI-49-126-4-0-K/22-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin hamda O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan fiskal strategiya ishlab chiqilganligi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

tasdiqlanganligi hamda mazkur strategiyada 2022-yilda kutilayotgan va 2023-2025 yillar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi (yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, to‘lov balansi va hokazo) asosida davlat budjeti daromadlari prognozi aniqlanganligi inobatga olinsin.

2. 2023-2025 yillar uchun tuman mahalliy budjetining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini tuzish, ko‘rib chiqish va bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan mahalliy budjet tashkilotlarining 2023-2025 yillarga budjetdan ajratiladigan mablag‘lar olishga buyurtmalar berish 2-ilovada belgilangan muddatlarda tuman moliya bo‘limiga taqdim etsin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Pardayev):

- belgilangan muddatlarda 2023-2025 yillar uchun tuman mahalliy budjetining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan barcha mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchilarga yuborsin;

- joriy yilning 1-avgustidan kechiktirmay viloyat moliya bosh boshqarmasiga tuman mahalliy budjetining 2023-2025-yillar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Tog‘ayev**

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 2 avgustdagi
283-4-58-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2023-2025 yillar uchun tuman mahalliy budjetining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini tuzish, ko‘rib chiqish va bajarilishini ta’minlash bo‘yicha ishchi guruhi

TARKIBI

1.	Sh.Pardayev	Tuman hokimligi Moliya bo ‘limi mudiri, **ishchi guruh rahbari**
2.	E.Qulmurodov	Tuman hokimligi Moliya bo ‘limi mudirining birinchi o‘rinbosari, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3.	S.Ochilov	Tuman davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i
4.	U.Boysunov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
5.	N.Abrayeva	Tuman Xalq ta’limi bo ‘limi mudiri
6.	J.Xo‘jamberdiyev	Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i
7.	J.Abdiyev	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig ‘i
8.	R.Chorshanbiyev	Tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i
9.	Sh.Soatov	Tuman Bolalar va o ‘smirlar sport maktabi direktori
10.	J.Xudoyberdiyev	Tuman Moliya bo ‘limi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari, **ishchi guruhi kotibi**

Qamashi tuman hokimining
2022 yil 2 avgustdagi
283-4-58-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning 2023-2025 yillarga budjetdan ajratiladigan

mablag‘lar olishga buyurtmalar berish

JADVALI

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Topshirish muddati
1.	Qishloq xo‘jaligi sohasi tashkilotlari	01.08.2022 y.
2.	Boshqaruv organlari sohasi tashkilotlari	01.08.2022 y.
3	Obodonlashtirish soxasi tashkilotlari	01.08.2022 y.
4	O ‘zini-o ‘zi boshqarish organlari soxasi	01.08.2022 y.
5	Ta’lim va va maktabgacha ta’lim sohasi muassasalari	01.08.2022 y.
6	Madaniyat tizimi muassasalari	01.08.2022 y.
7	Sport sohasi muassasalari	01.08.2022 y.
8	Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari	01.08.2022 y.
9	Ijtimoiy ta’minot muassasalari	01.08.2022 y.
10	Boshqa tashkilotlar	01.08.2022 y.